



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA MONOLOGIK NUTQNING AHAMIYATI

Tursunova Farida G'aniyevna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Farg'ona davlat texnika universiteti

o'zbek tili va tillarni o'rgatish kafedrasida dotsenti, +998903030568

tursunovafaridaxon07@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning og'zaki nutqini ertaklar, rivoyatlar, topishmoq va she'rlar orqali rivojlantirishda monologik nutqning ahamiyati masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, monologik nutq, maktabgacha ta'lim, tarbiya, badiiy asar, ertak, rivoyat, topishmoq, she'r, asar qahramonlari.

Аннотация. В статье рассматривается значение монологической речи в развитии устной речи детей дошкольного возраста посредством сказок, рассказов, загадок и стихотворений.

Ключевые слова: устная речь, монологическая речь, дошкольное образование, воспитание, литературное произведение, сказка, повествование, загадка, стихотворение, герои произведения.

Abstract: This article examines the importance of monologue speech in the development of oral speech in preschool children through fairy tales, stories, riddles, and poems.

Key words: oral speech, monologue speech, preschool education, upbringing, literary work, fairy tale, narrative, riddle, poem, characters of the work.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirishda badiiy asarlarni ona tilida so'zlash, o'z fikr mulohazalarini ijodiy bayon qilishga o'rgatishda monologik nutqning ahamiyati kattadir. Monologik nutq xususida fikr yuritir ekanmiz, avvalo, monolog haqida to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

Monolog (grek.-monos – bir, logos – so'z, nutq deganidir) badiiy nutq tiplaridan biri bo'lib, tor ma'noda olganda, badiiy asarda ishtirok etuvchi qahramonlardan birining o'z-o'ziga, suhbatdoshiga yoki ommaga qaratilgan nutqidir. Keng ma'noda olganda, muallif nutqining o'zi monolog asosiga qurilgan bo'ladi. Monologik nutqda so'zlovchi o'zi ko'rgan, eshitgan voqea-xodisalari, o'z ichki kechinmalari haqida ma'lumot beradi. Bunday nutq bir kishining, ya'ni so'zlovchining o'ziga yoki tinglovchiga qarata aytilgan kengaytirilgan nutqi bo'lib, tinglovchilarni suhbatga faol aralashuvga undamaydi va boshqa shaxsning javob berishini talab qilmaydigan nutq shaklidir. Monologik nutqning imkoniyati chegaralanmagan bo'lib, bola og'zaki nutqini rivojlantirishda eng qulay vositadir. Bunday nutq bolaning fikrlashi, dunyoqarashi kengayishiga olib keladi. [1] Buning uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ko'proq badiiy kitoblar, ayniqsa, ertaklar va rivoyatlar, topishmoq va she'rlar o'qib berish, yodda saqlab qolgan

jumlalarni qayta so‘zlatishga undash, qahramonlar o‘rnida o‘zini tasavvur etib, rollar ijro etishga da’vat etish ularning dunyoqarashini kengaytirishga olib keladi.

O‘quvchilarning og‘zaki nutqini shakllantirishda faqat uning so‘zlashigina emas, balki boshqalar nutqini tinglashi va unga munosabat bildirishi, ular bilan o‘zaro savol-javoblar o‘tkazishi ham yaxshi samara beradi. Bola ertak va rivoyatlarni qanchalik ko‘p tinglasa, uning fikrlash doirasi kengayadi, eshitganlarini so‘zlab berish orqali lug‘at boyligi ortadi. Ular asar qahramonlarini ijobiy va salbiy tiplarga ajratishni, ularga o‘z munosabatlarini bildirishni o‘rganadi. Bolalarga badiiy asarlarni ko‘proq o‘qib berish, qahramonlar haqida ularni ham ijodiy, ham tanqidiy fikrlashga o‘rgatish barcha o‘qituvchi va tarbiyachidan katta mas’uliyat talab qiladi. Buning uchun o‘qituvchi va tarbiyachi zamon bilan hamnafas bo‘lishi, zamon bilan barobar, kerak bo‘lsa, zamondan oldinda yurmog‘i lozim. Quyida berilgan ertak bolalar monologik nutqini o‘stirishda qulay manba hisoblanadi:

ORZUMAND ESHAKLAR

Bir savdogarning ikki eshagi bo‘lib, xo‘jayinning yumushlarini yengil qilar ekan. Kunlarning birida bu eshaklarning ko‘ngli o‘zga yurtlarni xushlab qolibdi. Shunda ulardan biri:

Yur ketaylik o‘tloqqa,
So‘lim bog‘-u chorboqqa.
Dam olamiz istasak,
Hech kim solmas qiynoqqa.
Ishlatdi xo‘p xo‘jayin,
Kunjara bermoq qiyin.
Kosamiz oqarmadi,
Ochdan o‘lmoqlik tayin,- deb nolibdi.
To‘g‘ri aytasan, do‘stim,
Sira bitmas kam-ko‘stim.
Tashlandiq joyda yotib,
Shilindi-ku et-po‘stim.
Ketdik yashil bog‘larga,
Xushmanzara tog‘larga.
Bizni chorlar bulbullar,

Do‘st bo‘lamiz zog‘larga, - deb maslahatlashib, hali so‘fi azon aytmasdan turib, ikkisi yo‘lga o‘tlanishibdi. Yurib-yurib o‘z orzulari ko‘chasida sarson bo‘lgan eshaklar suvsiz bir sahroyi Kabirga yetib kelishibdi.

-Yeyishga hech vaqomiz ham qolmadi, endi holimiz ne kechadi, -debdi quloqlarini ding qilib turgan sariq eshak.

-Hu anavi kulbani ko‘ryapsanmi? Ishqilib o‘sha uydan biror yegulik topsak bo‘lgani,- debdi kulrang eshak. Ular o‘z yurtlaridan uzoqlashib, begona davlatning chegarasiga borib qolganlarini bilmay qolishibdi. Qarashsa, yo‘lbarslar chegarani qo‘riqlash uchun saf tortib turishgan emish. Chegarachilar bu begona eshaklarni tutib olib, qorong‘u xonaga qamab qo‘yishibdi. Ochlikdan sillasi qurigan orzumandlar naq uch kecha-yu uch kunduz shu yerda qolib ketishibdi. To‘rtinchi kuni u yerdan arang qochib, boshi oqqan tomonga qarab jo‘nashibdi.

O'z oyog'i bilan kelgan beminnat mardikorlardan xursand bo'lgan kishilar ularni tutib olib, tinmay ishlataveribdi, ishlataveribdi. Qop-qop yuklarini ortib, istagan yerlariga olib ketar, ularni ayozli kunlarda suvsiz, och-nahor, qarovsiz qoldirib, ko'chalarga bog'lab qo'yishar ekan. Peshonasiga bitilgan taqdiridan noligan "shovvozlar" tinka-madorlari qurib, tashlandik joylarda yashar ekanlar.

Nihoyat, ko'zi ochilgan eshaklardan biri:

- Ha, o'zimizning uyda yaxshi yasharkanmiz. Har holda xo'jayin bizga yegulik berib, holimizdan xabardor olib turardi. Bular bizni sira qadrlashmas ekanlar,-deb hangrabdi ko'zlari yoshga to'lib.

Noshukurlarning noliganidan xabar topgan uy egasi ularni o'lasi qilib kaltaklabdi. Ta'zirini egan xayolparastlarning badanlari kaltakning zarbidan mo'mataloq bo'lib ketibdi. Sudrala-sudrala "Qaydasan, ona Vatan?"-deya bir necha kunda o'z yurtiga qaytib kelibdilar. Eshik yonida dag'-dag' titrab turgan eshaklarini ko'rgan xo'jayin avvaliga ularni tanimabdi, chunki qop-qora qonga belangan ekan. Ko'zlaridan tanib, tez orada ularga yegulik hozirlabdi va issiq kulbaga olib kirib, jarohatlangan joylariga malham surtib parvarish qilibdi. Shunda ular qilgan ishlaridan pushaymon bo'lib, ko'zlaridan duv-duv yosh to'kibdilar.[2]

Badiiy asarlar, xususan, ertak va rivoyatlar, topishmoq va she'rlar bolalarning og'zaki nutqini o'stirishga xizmat qilar ekan, monologik nutqning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, bolaning so'z boyligi ortadi; ikkinchidan, fantaziyasini kuchaytiradi; uchinchidan, emosional holatda syezish qobiliyatini o'stiradi; to'rtinchidan, tafakkuri va diqqatini oshiradi; beshinchidan, asar qahramonlari orqali yovuzlikka nafrat, ezgulikka, yaxshilikka muhabbat tuyg'usini oshiradi; oltinchidan, ijodkorlik va tashkilotchilik qobiliyatini shakllantiradi; yettinchidan, topqirlikka undaydi; sakkizinchidan, asar qahramonlariga baho berishga o'rgatadi; to'qqizinchidan, kattalar hayotining hamma tomonlarini ko'ra bilish va to'g'ri baholay olishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunova F.G'. Hajviy asarda monologik nutqning o'ziga xos xususiyatlari (Abdulla Qodiriy asarlari misolida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. 2023. Farg'ona. –B. 135.

2. Турсунова Ф.Г. Использование монолога при создании сатирических персонажей (на примере произведений Абдуллы Кадири)// Достижения науки и образования/ № 15 (37), 2018,

<https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-monologa-pri-sozdanii-satiricheskix-personazhey-na-primere-proizvedeniy-abdully-kodiri>